

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>X.X.Raxmatova</b>	
Naqshbandiya ta'limotida murosa falsafasiga munosabatning o'ziga xos xususiyatlari .....	98
<b>X.A.Yulbarsova</b>	
Bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari .....	102
<b>A.B.G'ulomov</b>	
Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishning falsafiy jihatlari .....	107
<b>B.Raxmanov</b>	
Ibn Sinoning nochiziqli tafakkur asosidagi falsafiy qarashlarida sinergetik tamoyillar .....	110
<b>N.A.Imomova</b>	
Mehnat migratsiyasi vujudga kelishining ijtimoiy omillar va shart-sharoitlari .....	117
<b>L.R.Usmonova</b>	
Falsafiy komparativistika qadimgi dunyo madaniy muloqoti muammolari kontekstida .....	122
<b>B.S.Ganiyev, U.S.Maksumova</b>	
O'zbekistonda tadbirdorlik madaniyati dinamikasining ijtimoiy-falsafiy jihatlari .....	128
<b>A.Tashanov</b>	
Zigmund Freyd va Erix Fromm falsafasida inson destruksiyasining ayrim talqinlari .....	135
<b>A.A.Qambarov</b>	
Ma'rifatli avlodni tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy tahlili .....	140
<b>D.X.Gafforova, I.I.Rizayev</b>	
O'rta asrlar O'zbekiston maqbaralarida tug'larning islom va tangrichilikdagi muqaddas timsoliy vazifalari .....	144
<b>J.J.Shodiyev</b>	
Insonlarni qadrlash va uni ma'naviy-axloqiy jihatdan qo'llab-quvatlashda din va falsafaning o'rni .....	150
<b>D.O.G'afurov</b>	
O'zbek milliy nikoh marosimlarining transformatsion xususiyatlari va uning ma'naviy qiyoferasi .....	155

---

## SIYOSAT

<b>R.B.Mirzabayev</b>	
Yangi O'zbekistonda davlat xizmati sohasi takomillashuvi jarayonlari .....	159
<b>R.A.Ikramov</b>	
Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda huquqiy ta'lim-tarbiya va ommaviy axborot vositalarning o'rni .....	168
<b>D.Sh.Maxkamov</b>	
Nizolarni hal etishda mediatsiya institutining o'rni va ahamiyati .....	173
<b>M.M.Safarov</b>	
Yangi O'zbekiston yoshlari siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashishini futurologik istiqbollari .....	177

---

## ТАРИХ

<b>A.Sharafiddinov</b>	
Farg'onan viloyatining Andijon uyezdida paxtachilik va paxta sanoatining shakllanishi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari) .....	185
<b>M.F.Rasulov</b>	
O'zbekiston minoralari haqida ayrim mulohazalar (qadimgi va o'rta asrlar davri) .....	190
<b>M.H.Isamiddinov, M.H.Hasanov, N.Qambarov</b>	
2022-yili Quva arkida olib borilgan arxeologik qazishma ishlari .....	196
<b>F.E.Atajanova</b>	
Xorazmda xalq maorifi tizimi rivojlanishi: muammolar, vazifalar va natijalar .....	200
<b>B.T.Mirzaqulov</b>	
Mang'itlar sulolasi davrida Buxoro amirligida davlat boshqaruvi .....	204

2022-YILI QUVA ARKIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK QAZISHMA ISHLARI

АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ РАБОТЫ, ПРОВЕДЕННЫЕ В АРКЕ ГОРОДИЩЕ КУВА  
В 2022 Г.

ARCHAEOLOGICAL WORKS CARRIED OUT IN THE ARCH OF THE KUVA SETTLEMENT IN  
2022

Isamiddinov Muxammad Hasanovich<sup>1</sup>, Hasanov Mutalibjon Hasanovich<sup>2</sup>,  
Qambarov Nasibillo<sup>3</sup>

<sup>1</sup>Isamiddinov Muxammad Hasanovich

— Farg'ona davlat universiteti professori

<sup>2</sup>Hasanov Mutalibjon Hasanovich

— Farg'ona davlat universiteti professori

<sup>3</sup>Qambarov Nasibillo

— Farg'ona davlat universiteti doktoranti

*Annotatsiya*

Quva yodgorligining ark qismida 2022-yilda Farg'ona viloyat hokimligining moddiy yordami bilan qazishma ishlari olib borildi. Qazishmalardan maqsad shahar hokimi arkining mug'ullargacha va undan keyingi davrlardagi ichki va tashqi strukturasini aniqlashdan va tegishli tarixiy xulosalar chiqarishdan iboratdir.

*Аннотация*

По оказанной финансовой поддержке Ферганского хокимията в 2022 г. были произведены раскопки на арке городище Кува. Раскопки производились в целях определения внутренней и внешней структуры домонгольского и послемонгольского акрополя. Раскопки производились для получения новых историко-культурных данных.

*Abstract*

With the financial support of the Ferghana City, in 2022, excavations were carried out on the arch of the ancient settlement of Kuva. The excavations were carried out in order to determine the internal and external structure of the pre-Mongolian and post-Mongolian acropolis. The excavations were carried out to obtain new historical and cultural data.

**Kalit so'zlar:** Quva, Axsikent, Quvasoy, stratigrafik shurf, badrab, pishiq g'isht, geometrik naqsh, struktura, qo'idl

**Ключевые слова:** Кува, Ахсикент, Кувасой, стратиграфический шурф, бадраб, кирпич, геометрический узор, строение, инструкция.

**Key words:** Kuva, Ahsikent, Kuvasoy, stratigraphic shurf, badrab, brick, geometric pattern, structure, manual

**KIRISH**

Quva shahar xarobasining o'r ganilish tarixi muammolari. Zamonaviy Quva shahri Farg'ona vodiysining qadimgi yirik shahar markazlaridan biri hisoblanadi. Shahar miloddan avvalgi III-II asrlarda Axsikent, Mingtепа va Eylaton kabi markazlar qatori shakillangan, qadimgi Sharq va G'arbni bog'lab turuvchi ipak yo'lining muhim strategik nuqtasida joylashgan.

Hozirda kvadrat shaklga yaqin Shahristonning umumiyl maydoni 12 ga atrofida. Shahristonning shimoliy qismida ikki yarusli shahar hokimining arki saqlanib qolgan bo'lib, uning umumiyl maydoni 2 ga dan iborat.

1956-yildan O'zbekiston respublikasi Fanlar akademiyasining Tarix va arxeologiya instituti Quva shahristoni va uning atroflarini o'r ganishni boshlaydilar. Bu ishlarga Yahyo G'ulomov rahbarlik qilib, uning tarkibida arxeolglardan M.Aminjonova, I.Axrорор, V.A.Bulatova, V.D.Jukov X.Muxamedov, J.Mirzaaxmedovlar qatnashdilar.

1956-yili arxeolog V.D.Jukov Quva shahri xarobasini va shuningdek butun tumanda joylashgan arxeologik obidalarni o'r ganish uchun keladi va birinchi marta tumandagi arxeologik obidalarni xaritasini tuzadi (5). 1957–1958-yillari arxeolog I. Axrорор ham Quva tumanining arxeologik yodgorliklarini xaritasini tuzish ustida ishlab, tuman xududida 4 ta antik davri va 22 ta ostida antik davri qatlamlari bo'lgan o'rta asrlarga oid yodgorliklari topib xaritaga tushiradi (3, s.4). 1964–1965-yillarda Quva tumanini chegaralari o'zgarishi munosabati bilan tuman hudududining arxeologik yodgorliklari qayta o'r ganilib, uning hududida 33 ta yodgorlik borligi aniqlandi. Bu yodgorliklar davr jihatidan 3 ta qismga bo'lindi; 1) bir qatlamlili, miloddan ilgarigi I va milodiy I asrlar

## TARIX

yodgorliklari; 2) bir qatlamlı ilk o'rta asrlar yodgorliklari (IV-VII asrlar); ko'p qatlamlı rivojlangan o'rta asrlarga oid yodgorliklar (miloddan ilgarigi I- asrlardan milodiy XIII asrgacha) (3. 4.b).

Quva yodgorligida olib borilgan arxeologik qazishmalarning eng katta yutug'i qadimgi shaharning robot qismida V. Bulatova tomonidan budda ibodatxonasining bir qismi budda xaykali bilan ochib o'rganilgani bo'ldi (3). 1996-97 yillarda Ahmad Farg'oniy tavlludining 1200 yilligi munosabati bilan T.Sh.Shirinov boshchiligidagi ekspeditsiya tashkil qilinib, Quva shahristonining o'rta asrlar qatlamlari ochib o'rganildi (12).

Quva shahri 1974-yildan—Farg'ona viloyati Quva tumanining ma'muriy markazi sifatida qabul qilingan. Farg'ona shahar markazidan 40 km shimoli – sharqda joylashgan. Shaharning vujudga kelishi va nomi xaqida turli rivoyatlar mavjud. «Farg'ona tarixi»ning muallifi Ibratning yozishicha, Quva Qubod (yoki Qubo) deb atalib, keyinchalik «Quva» shaklini olgan. Quva va Farg'ona (Davan) davlati to'g'risida dastlabki ma'lumotlar mil. avv. II - asrlarga mansub Xitoy yilnomachilarining manbalarida keltirilgan. O'sha davrda Quva kengayib qo'handiz, shahriston va rabod kabi uch qismdan iborat bo'lgan o'rta asrlar shahrasozlik topografiyasiga ega bo'lgan. Shahar tevaragi ikki qator qalin va baland mudofaa devori bilan o'ralgan. Rabodda baland (3,6 m) yaxlit tagkursi ustida qadimgi Quva budda ibodatxonasi qad ko'targan. Ibodatxona VIII-asr boshlarida arablar tomonidan vayron qilingan. IX—XII-asrlarda qadimgi Farg'onanining yirik, ko'rkan va obod shahriga aylangan. Istaxriyning ta'kidlashicha, Quva maydonining kattaligi jihatidan Farg'onada Axsikatdan keyin ikkinchi shahar hisoblangan. Ibn Havqalning yozishicha, Quva Sayxun (Sirdaryo)gacha yetib boradigan nahr sohilida qad ko'targan. Ibn Havkal aytgan nahr bu Quvasoy bo'lib, u Isfayramsoydan ajragan tabiiy irmoq. Bu soy gugol xaritasida qadimdan Karkidon suv ombori joylashgan vohadan o'tib, hozirgi Akbarobod qishlog'ining chetida Quva vohasiga chiqqan va uning o'zanlari zamonaviy shahar ostida qolib ketgan. Uning markazida Registon maydoni, ko'handiz, jome masjidi, rabodda esa saroy, qamoqxona va bozorlari joylashgan. Quva mo'g'ullar istilosini oqibatida vayron etilib, XIV—XVI-asrlarda qasaba shaklidagi maskanga aylangan. Yoqut Hamaviy Quvani katta shahar deb ataydi. Shahar Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asariga ilova qilingan xaritasida ko'rsatilgan. Quvada hunarmandchilik rivojlangan. Temirchilik va shishasozlik yuksak darajaga yetgan, shaharning o'z tangasi zarb qilingan. «Boburnoma»da Quva Andijondan 4 og'och (farsax) narida joylashgan qishloq deb aytildi.

Akademik A.R. Muhammadjonovning fikricha, shahar nomi «Qaviybod», «Qavobod» yoki «Qaybod» shakllarida talaffuz etilgan va qaviylarning qarorgohi, tojdar hukmdorning kayoni taxti o'rnatilgan qasr va mamlakatning bosh shahri — poytaxt ma'nosini anglatgan. Keyinchalik o'zgarib Quva shaklini olgan.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, o'rta asrlarda Quvaning umumiyligi maydoni 100—120 ga tashkil etgan. Shundan shahriston 12 ga va uning shimoli-sharqiy burchagidagi arki a'lo 2 ga maydonni egallagan shahriston va rabot qoldiqlari hozirgacha qisman saqlanib qolgan.

1998-yili Ahmad al-Farg'oniyning 1200 yillik yubileyiga tayyorgarlik ko'rish tadbirlari loyihasiga asosan Quvada O'zbekiston FA Y.G. G'ulomov nomli arxeologiya institutining xodimlari qazuv-tadqiqot ishlarini olib bordilar. Buning natijasida shahristonning janubiy mudofaa devori ostidan 8 m ziyod chuqurlikdagi qatlamlardan mil. avv. II — I – asrlarga oid arxeologik topilmalar qo'liga kiritilgan [12].

Ikkinchi katta natijalardan biri, samoniylar davri shahar mahallasining bir qismi ochilib osmon ostidagi muzey sifatida turizm tizimiga kiritilgan. Ilk marta shahar mudofaa devori asosigacha ochilib o'rganilib, uning qurilish davrlari aniqlandi. Ma'lum bo'lishicha shaharning ark qismi miloddan avvalgi III-II asrlarda qurilib qadimgi Farg'onanining yirik shaharlaridan biri bo'lganligi aniqlandi. Shunga turdosh Mingtepa yodgorligi misolida aytishimiz mumkinki, Quva shaharining ikkinchi tashqi mudofaa devori ham bo'lgan. Hozirgi Quva shahar xududi kengayishi tufayli aholi nufuzini oshishi natijasida ikkinchi shahar mudofaa devori o'zlashtirilgan. 1998 yildagi qazuv ishlari natijasida shaharning uchta darvozasining o'rinnari aniqlandi, shahar xarobasi hududidan turar-joy binolari majmuasi va uning shimolida VII—VIII-asrlarga oid budda ibodatxonasi hamda u yerdagi buddaviy ilohlarning haykallari topildi [3].

Quva shahrinin o'rganilish tarixidan kurinib turibdiki, shaharning tarixiy topografiyasini o'rganishda uning ark qismini qazish ishlari olib borilgan biroq ilmiy muomilaga kiritilmagan. Xatto,

oxirgi davrlarda yozma manbalarda olingen shahar arki o'rnida qurilgan masjid to'g'risida ham hech qanday arxeologik ma'lumot aniqlanmagan.

Shaharning shaxristoni hududida keng qamrovli tadqiqot ishlari olib borilgan biroq shahristonning markaziy qismida, shimoli-sharqi qismidagi stratigrafik qazishmalar bo'yicha qilingan ishlar to'g'risidagi ilmiy xisobotlar bizgacha saqlanmagan [3].

Quva shahar harobasi ko'p qatlamlari yodgorlik, bo'lib, uning har bir davri tadqiqotchilar oldida aniqlanmagan katta muammolar bo'lib turibdi.

### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

2022-yili Farg'ona viloyat xokimligining tashabussi bilan Quva shaharistonining shimoli-sharqi tomonida, arkning janubi-sharqi qismida (koordinata: 72.062242, 40.525401) uning me'moriy tizimini, ya'ni arkning ichki va tashqi strukturasini aniqlash maqsadida arxeologik qazish ishlari olib borildi. Shahar arkida o'tgan asrning 60–80-yillari qazish ishlari olib borilib, arkni shahristondan ajratib turgan mudofaa devori qisman ochilgan, biroq, ular to'g'risida ilmiy maqolalar chop etilmagan, hisobotlar yozilmagan. Shuning uchun biz arkdagisi qazuv-qidiruv ishlarini o'tgan asrlarda qazilgan yerlarini qayta ko'rib chiqish va ularni ham bir tizimga solishni maqsad qilib oldik. Qazishmamiz shimol-janub yo'nalishda uch qismga (1A, V, S seksiyalar) ajratilgan xolda, umumiy maydoni 40x10 m ortiqni tashkil etgan maydonga bo'lib o'rnatildi.

2022-yili kuhna Quva arkida biz ucta bir-biriga davriy birin–ketin rivojlanib borgan qurilish davrlarini aniqladik. Birinchi davrning madaniy qatlami arkning qalin (145 sm) devorining pol qismining yuzasigacha tushib o'rnatildi. Bu birinchi devor asosidagi polining yuzasida 60-70 sm qalinishdagi devorlar qulagan qatlama sifatida kuzatiladi. Bu davr Quva shahrining qoraxoniylar davri tarixi bilan bog'liq qatlamlar bo'lib, uning tarixi va madaniyatini o'rganishda qo'l keladigan yangi materiallar berishi kuzda tutilmoqda. Qatlamdan topilgan sopol idish siniqlari, metal idishlarga taqlid qilinganlari ham bo'lganligini ko'rsatadi.

Ikkinci davrda arkning devorlari qisman foydalanishda davom etadi, uning zali mayda xonalarga bo'linib ark o'zining faoliyatini tugatib o'rniga yengil konstruksiyali turar-joylari quriladi. 1A sektorda yarim yerto'la shaklidagi xonalardan iborat turar-joy xonalari ochildi. Bu jarayon Axsiketda ham kuzatilgan [10. 218-219]. Bitta turar-joyning oldi ayvon (2-xona) oshxona o'choqlari va ikkita eshigi bilan ikkita xo'jalik (1, 2-xonalar) xonalardan iborat. Shu davrga oid yuzasi pishgan g'ishtlar bilan qoplangan hovli 1V va 1S sektorlarda ochilgan. Bu hovliga 2 ta xona eshiklari bilan pishshiq g'ishtli hovlilar bilan bog'lanadi. 1A sektorining 2-xonasining shimoli–sharqida ochilgan badrab ikkinchi qurilish davriga oid bo'lib, xronologik va arxeologik materiallar tipologiyasini o'rganishdagi asosiy manba xisoblanadi.

### **XULOSA**

Shunday qilib, 2022-yilda Quva yodgorligining ark qismining yuqori qatlamlarida olib borilgan qazishma ishlari natijasida 3 ta birin–ketin kelgan stratigrafik qatlama ochib o'rnatildi. Uning eng pastki birinchi qatlami qalin (monumental) devor va uning pol qismi ochildi. Uning poli qismida yengil tipdagisi uy devorlarini qulagan holda yotishiga qaraganda, qoraxoniylar davridagi o'zaro nizolardan kelib chiqqan urushlarning natijasi bo'lishi kerak, degan fikr keldi.

Qatlamdan juda ko'p sopol idishlarning siniqlari, o'nga yaqin mis va kumush tangalar bilan birga topildi. Gumus qatlamidan 11 ta mis tangalardan 5 tasini aniqlashni iloji bo'lindi, qolgan 6 ta tanga esa, Farg'onaning xijriy 357 yildagi xukmdori Mansur b. Nux; Ahmad Mansur; Klich al Xadjibga ta'luqli. Badrab qatlamidan va yengil konstruksiyali xonanining polidan shu xukumdor tangalarini topilganligi bo'larni bir davrga oid ekanligidan dalolat berish bilan birga, arkning inqiroz davrini ham aniqlab beradi.

O'ziga xos xo'jalik o'ralaridan iborat qurilish davri stratigrafik quyi qatlamlarni kesib tushadi. Arxeologik topilmalarining aksariyat qismi sopol va shisha idishlarning siniqlaridan iborat. Kulolchilik buyumlarini tipologik kuzatganimizda sopol idishlar quyi xonalardan, yoki badrabdan topilgan sopol idishlar bilan aralash xolda uchraydi. Qazishmadan topilgan sopol idishlar majmuasi Quvaning 4A qazishmasining badrablar stratigrafiyasi va ulardan topilgan arxeologik topilmalar deyarli bir xil [1.31-42]. B. Abdulgaziyeva Quvaning 4A–qazishma badrablardan topilgan arxeologik materiallarni XI–XII asrlarga oid deb xisoblaydi. Shaxar arkidagi kuzatishlarimiz asosida xo'jalik o'ralarini aynan X–XI asr qatlamlarini kesib tushayapti va uning to'plamidagi sopol siniqlari quyi qatlamlardan tushib qolgan bo'lsa kerak, deb xisoblaymiz. O'ralardan topilgan ayrim sopol idishlar va bir dona 2V – o'ra

## TARIX

to'plamidan topilgan XVII-XVIII asrlarga xos kumush aralashmali fulus tangalar bunga asos bo'la oladi.

Shahar arkining inqirozi qo'lda yasalgan sopol idishlarning keng tarqashi, yengil konstruksiyali turar-joylarning kirib kelishi bilan bog'liq bo'lsa kerak. O'zbekiston arxeologiyasida "psivdotripolye" (soxta tripolye sopol idishlari) deb qaraladigan, qo'lda yasalgan idish majmuasini tarqash jarayoni turlicha qaraladi. Z. I. Usmanova Axsiketning xo'jalik uylarining polidan bir nechta turdag'i shu xildagi sopol idishlarni taxlil qilar ekan, olima Y.A.Zadneprovskiy qarashlarini qo'llab quvvatlaydi [10. 218-219]. Bu fikrni keyingi yillarda Axsiket shahar harobasida olib borilgan keng qamrovlidir. Tadqiqot xulosalari ham tasdiqladi [2.71].

Shu xil sopol idishlari Qirg'izistonning Talas vohasida, Samarcand, Qashqadaryo yodgorliklarda ham uchrashini kuzatilgan [10.218-219]. Bu turdag'i sopol idishlarning shaharlarda tarqash jarayonini YE.M.Peshereva o'rgangan bo'lib, Tojikistonning tog'li rayonlarida ham hozirga qadar ayollar o'zlarining uylarida xuddi shunday idishlarni yassashlarini aytadi va bu idishlarni "ayollar kulolchiligi" deb ataydi. B.A. Litvinskiy ham shunga yaqin fikrni bildirib, qishloq aholisining shaharlarga kirib kelishi bilan bog'laydi. Bu har ikki fikrda ham jon bo'lib, aynan rivojlangan o'rta asrlarda rang bilan geometrik shakldagi naqshlar bilan bezatilgan idishlarga shaharlarda ham xaridorlarning ortgani bilan bog'liq bo'lishi kerak. Janubiy Qozog'iston xududlarida ham shunday idishlar tarqalgan [8.103-108].

Axsikethning XVIII-obyektida o'ziga xos qo'lda yasalgan choynaklar topilgan. Sh. Omonov bu xil sopol idishlarni o'rganar ekan, ularni mahalliy bronza davri yodgorliklari Chust, Oktom-eylaton madaniyatlaridan ananaviy rivojlanib kelib qoraxoniylar davrida Movarounnaxrga sharqdan – Farg'onadan kirib kelganga o'xshaydi deb xisoblaydi. Bu fikr albatta noto'g'ri bo'lib, o'z paytida bunday sopol idishlarni "psivdotripolye" deb aytishlariga sabab bo'lgan narsa ham Ukrainadagi tripolye madaniyati bilan o'xshash ekanligidadir.

Xo'jalik o'ralar va yengil konstruksiyali turar-joylar Farg'ona vodiysining bronza davri Chust va Dalvarzintepa yodgorliklar anana sifatida kuzatiladi [5.s.46-71] va XVII-XVIII asrlardagi inqirozlar davrida tepe shaklini olgan sobiq arkning yuza qismida hayot jonlanganga o'xshaydi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdulgaziyeva B. K issledovaniyu keramiki Kuv XI-XII vv. // AU. vip. 2 (13) 2016. s.31-42. Samarkand. 2016
2. Anarboyev A. XII asrning ikkinchi yarmi – XIII asjni birinchi choragida Axsiket va Samarcand mudofaa istixkomlari // AU. 2014. № 1 (8). S. 72. Samarkand. 2014
3. Bulatova V. Drevnyaya Kuva. Tashkent. 1978.
4. Gritsina A.A., Abdulgaziyeva B. Lepnaya raspisnaya keramika iz karavan-saraya Turtkultepa // AU., № 1 (8) s. 58-69. Samarkand. 2014
5. Jukov V.D. Obsledovaniye gorodisha Staraya Kuva v 1956 g. KSIIMK. Vip 80. M.: 1960, s.80.
6. Zadneprovskiy Y.A., Matbabayev B.X. Osnovniye itogi izucheniya Chustskogo poseleniya v Fergane (1950-1982gg.). IMKU. Tashkent. 1984
7. Litvinskiy B.A. Arxeologicheskoye izuchenije Tadzhikistana sovetskoy naukoy // TIIAE AN Tadj. SSR. XXVI. S.62. 1954
8. Matbabayev B.X., Gritsina A.A. Arxeologicheskiye issledovaniya v yugo-zapadnoy chasti shaxristana Kuv (Kubi) // IMKU vip. 31. s. 91-98. Samarkand. 2000
9. Omonov Sh. Axsiketdan topilgan qo'lda yasalgan bezakli "choynak" to'g'risida // AU. 2020. № 4 (23). s.103-108
10. Sayko E. V. Istoriya texnologii keramicheskogo remesla Sredney Azii VII-XII vv. Dushanbe, 1966. S. 27
11. Usmanova Z.I. Raspisnaya keramika iz Axsiketa // IMKU, vip. 19. S.218-219. Tashkent. 1984.
12. Shirinov T.SH., Matboboyev B.X., Ivanov G.P. Ahmad al-Farg'oniy davrida Kubo shaxri. Toshkent. 1998.